

*Xudayberganova R.T.  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,  
"Geografiya" kafedrası dotsenti, Ph.D.  
Urganch sh. O'zbekiston*

## **O'ZBEKISTON SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish xususiyatlari va hududiy tarkibi, sanoatni mahalliyashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashning iqtisodiy - geografik jihatlari, iqtisodiy rayonlarda qayta ishlashning rivojlanishi, sanoat majmualari, klasterlar shakllanishi masalalari tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: Sanoat tarmoqlari, iqtisodiy rayon, iqtisodiy landshaft, tabiiy resurs, mahalliyashtirish, modernizatsiya, diversifikatsiya, kooperatsiya, infrastruktura, sanoat majmuasi, klaster, urbanistik mujassamlashuv.*

*Худайберганова Р.Т.  
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни,  
Доцент кафедры "География", Ph.D.  
г.Ургенч, Узбекистан*

## **ОСОБЕННОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА**

*Аннотация. В статье анализируются особенности и территориальная структура устойчивого развития отраслей промышленности Республики Узбекистан, экономико-географические аспекты локализации, модернизации и диверсификации промышленности, развития переработки в экономических районах, формирования промышленных комплексов и кластеров.*

*Ключевые слова: Отрасли промышленности, экономический регион, экономический ландшафт, природные ресурсы, локализация, модернизация, диверсификация, сотрудничество, инфраструктура, промышленный комплекс, кластер, городская интеграция.*

*Khudayberganova R.T.  
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni,  
Associate Professor of the Department of Geography, Ph.D.  
Urgench city, Uzbekistan*

## **FEATURES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S INDUSTRY**

*Abstract. This article analyzes the features and territorial structure of the sustainable development of industrial sectors of the Republic of Uzbekistan, the economic and geographical aspects of the localization, modernization and diversification of industry, the development of processing in economic regions, the formation of industrial complexes and clusters.*

*Keywords: Industrial sectors, economic region, economic landscape, natural resources, localization, modernization, diversification, cooperation, infrastructure, industrial complex, cluster, urbanistic embodiment.*

Jahonda ro'y berayotgan globallashuv jarayonining jadal rivojlanishi o'z ijobiy jihatlari bilan bir qatorda hududlarda o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish dasturi"ning 12-maqsadida "Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish shakllariga o'tishni ta'minlash" vazifasi belgilab berilgan [1]. Mazkur vazifalar echimida, ayniqsa, mintaqalarda sanoat tarmoqlari va uning hududiy tarkibini takomillashtirish, sanoat tarmoqlari imkoniyatidan samarali foydalanishni ta'minlovchi ixtisoslashuvga erishish, prognoz qilish va mavjud muammolarni manzilli hal etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda sanoat sohasini jadal rivojlantirishda hududlarning tabiiy-resurs salohiyati va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda korxonalarni joylashtirish va uning hududiy tarkibini takomillashtirishga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" ustuvor yo'nalishining 22-maqsadida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash masalalari belgilab berilgan [2].

Respublikada sanoatning tayanch sohalarini texnik va texnologik qurollantirilishi barobarida keng xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mehnat talab tarmoqlar, jumladan, mashinasozlikning avtomobilsozlik, elektrotexnika, maishiy mashinasozlik kabi sohalari shakllantirildiki, ushbu sohalarni yanada rivojlantirib ichki bozorni "to'yintirib" keng eksportini yo'lga qo'yish milliy

sarmoya to'planishi, texnopolislar, klasterlar vujudga keltirishga o'tish imkonini beradi.

Ma'lumki, respublika hududlari bir xil tabiiy hamda iqtisodiy salohiyatga ega emas. Ayni vaqtda, turli tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tishgan. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlari amalga oshirildi. Respublikada amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'z natijalarini bermoqda. Tahlillar mustaqillik yillarida respublikamizda sanoat ishlab chiqarishi tez rivojlanib borayotganini ko'rsatmoqda.

E'tiborlisi shundaki, sanoatning o'sish ko'rsatkichlari ayrim yillari yalpi ichki mahsulot (YIM) darajasidan yuqori bo'lib kelmoqda [5]. Bu davrda xususan mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo va neft kimyosi tez rivojlantirildi. Chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (NQZ) ("Teknip", Fransiya), Sho'rtan, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ("ABB", Korgaz), Qandim gazni qayta ishlash majmuyi (Lukoil, Rossiya) barpo etildi, Farg'ona NQZ to'liq rekonstruktsiya qilindi.

Gaz-kimyo tarmog'ining tashkil etilishi tabiiy gazni qayta ishlashni chuqurlashtirish va turdosh tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish imkonini yaratdi. Kimyo sanoatida 2006-yilda Qo'ng'iro't kaltsiyli soda zavodi, 2010-yilda Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, 2016-yilda Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Natijada respublika sanoatining YIMdagi ulushi 2000–2022 yillar oralig'ida 16,2 foizdan 26,7 foizga yetdi.

Sobiq Ittifoq davrida mamlakat sanoatining bir tomonlama rivojlanishi tufayli yengil sanoatning ulushi yuqori bo'lgan, uning 60 foizga yaqin hajmi paxta tozalash tarmog'iga to'g'ri kelgan. Keyingi yillarda mamlakat sanoat tarmoqlar tarkibida metallurgiya, mashinasozlik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoat tarmoqlarining hissassi ortib bormoqda.

Respublika sanoat ishlab chiqarishining 1991-yildagi tarmoqlar tarkibida eng yuqori ulush - 39,9 foizi yengil, 19,1 foizi oziq-ovqat sanoatiga to'g'ri kelgan. Hozirda esa bu raqamlar, mos ravishda, 14,9 va 13,8 foizni tashkil etadi. Respublika

sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan metallurgiya tarmog'ining sanoatdagi ulishi 1991 yilga nisbatan 2 marta ortib 2022-yilga kelib 19,4 foizni berdi. Tarmoqning asosiy quvvatlari Toshkent va Navoiy viloyatlarida joylashgan.

Mashinasozlik majmuyida ham qator o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu tarmoqning ulushi 1991–2022 yillarda 11,6 foizdan 16,9 foizga oshganini kuzatish mumkin. 90-yillarda O'zbekiston mashinasozligida avtomobilsozlik tarmog'iga asos solindi. Hozirda Asaka, Pitnak shaharlarida AQShning "Jeneral Motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar, Samarqand shahrida Yaponiyaning "Isuzu" kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar va Germaniyaning "MAN" kompaniyasi yuk avtomobillar ishlab chiqaradigan yangi zavodlar faoliyat yuritmoqda [7, 8]. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, respublika sanoat tarmoqlar tarkibi rivojlanib va turlanib bormoqda.

Hozirgi vaqtda respublika sanoat ishlab chiqarishda eng ko'p ulush Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Toshkent viloyati bilan birgalikda ikkalasi respublika yalpi sanoatining 37-38 foizini berishmoqda (1-jadval).

Eski sanoat quvvatlarni tiklanishi (ko'mir sanoati, mashinasozlikning transformator, ko'tarma kran ishlab chiqarish tarmoqlari, televizor, elektrotexnika (mis kabel)) va modernizatsiyalanishi va kichik biznesda minglab yangi quvvatlarni tashkil etilishi Toshkent iqtisodiy rayoni ilgarigi salohiyatini tiklanishiga olib keldi. Toshkent shahri va viloyati sanoat korxonalari soni va har yili yangidan tashkil etilayotgan korxonalar soni bo'yicha oldinda turishadi.

Yuqoridagi holat, sanoat ishlab chiqarishining kontsentratsiyasi (mujassamlashuv markazlari, A.Y.Probst) omili - infrastruktura omillari bilan bog'liqdir. Iqtisodiy landshaft - rayonning (A. Lyosh) iqtisodiy geografik qulay infrastruktura rivojlangan hududlari o'ziga xos o'sish qutblariga (F.Perru, J.Budvil, P.Potye) aylanishgan. Kooperatsiyalashish imkoniyati mavjud sanoat korxonalarining mavjudligi, qulay infratuzilma, turli malakaga ega mehnat resurlarining nisbatan ko'pligi (respublika oliy o'quv yurtlarining 2/3 qismi Toshkent shahri va viloyatida joylashgan) bois har yili yangi tashkil etilayotgan korxonalarning 1/4 qismi Toshkent shahriga, 10 foiz atrofida Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Hudud sanoat salohiyati ortgan sari, o'sish qutblari va mujassamlashuv markazlari ma'lum bir to'yinish nuqtasiga yetguncha, yangi – yangi quvvatlarni o'ziga tortaveradi. Ko'p hollarda hududda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish oxir - oqibat ekologik omil bilan cheklanadi. Albatta sanoat korxonalari soni doimo ham hududning sanoat salohiyati bilan mos kelavermaydi (1-jadval). Navoiy, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari kabi yirik korxonalar mintaqaviy sanoatning bir necha o'n foizdan mahsulotini berishadi.

**1-jadval**

**O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishning hududiy tarkibi  
(jamiga nisbatan foiz hisobida)**

| №         | Hududlar nomi                         | 1991 - y.   | 1995 - y.   | 2000 - y.   | 2005 - y.   | 2010 - y.   | 2020 - y.   | 2021 - y.   | 2022 - y.   | 1991 - yilga nisb. (+, -) |
|-----------|---------------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|---------------------------|
| <b>1.</b> | <b>Toshkent iqtisodiy rayoni</b>      | <b>30,8</b> | <b>36,4</b> | <b>32,8</b> | <b>28,3</b> | <b>34,0</b> | <b>36,7</b> | <b>39,1</b> | <b>37,8</b> | <b>+7,0</b>               |
| 1.1.      | Toshkent shahri                       | 16,3        | 17,2        | 16,7        | 11,6        | 19,3        | 18,4        | 20,3        | 20,3        | +4,0                      |
| 1.2.      | Toshkent viloyati                     | 14,5        | 19,2        | 16,1        | 16,7        | 14,7        | 18,3        | 18,8        | 17,5        | +3,0                      |
| <b>2.</b> | <b>Mirzacho'l iqtisodiy rayoni</b>    | <b>5,1</b>  | <b>4,3</b>  | <b>4,5</b>  | <b>4,6</b>  | <b>3,7</b>  | <b>3,8</b>  | <b>4,2</b>  | <b>4,3</b>  | <b>-0,8</b>               |
| 2.1.      | Jizzax viloyati                       | 2,3         | 1,4         | 1,2         | 1,8         | 1,3         | 1,6         | 2,0         | 2,1         | -0,2                      |
| 2.2.      | Sirdaryo viloyati                     | 2,8         | 2,9         | 3,3         | 2,8         | 2,4         | 2,2         | 2,2         | 2,2         | -0,6                      |
| <b>3.</b> | <b>Farg'ona iqtisodiy rayoni</b>      | <b>26,0</b> | <b>26,3</b> | <b>23,7</b> | <b>23,6</b> | <b>23,4</b> | <b>19,2</b> | <b>17,7</b> | <b>19,2</b> | <b>-6,8</b>               |
| 3.1.      | Andijon viloyati                      | 6,4         | 5,5         | 7,7         | 10,9        | 12,7        | 10,1        | 8,1         | 10,1        | +3,7                      |
| 3.2.      | Namangan viloyati                     | 6,5         | 4,4         | 3,9         | 3,1         | 2,4         | 3,1         | 3,3         | 3,4         | -3,1                      |
| 3.3.      | Farg'ona viloyati                     | 13,1        | 16,4        | 12,1        | 9,6         | 8,3         | 6,0         | 6,3         | 5,7         | -7,4                      |
| <b>4.</b> | <b>Zarafshon iqtisodiy rayoni</b>     | <b>21,6</b> | <b>18,4</b> | <b>24,1</b> | <b>24,3</b> | <b>20,2</b> | <b>28,1</b> | <b>26,4</b> | <b>26,4</b> | <b>+4,8</b>               |
| 4.1.      | Buxoro viloyati                       | 5,3         | 4,1         | 6,4         | 4,8         | 4,1         | 4,9         | 4,7         | 5,1         | -0,2                      |
| 4.2.      | Navoiy viloyati                       | 8,8         | 8,1         | 11,8        | 15,9        | 11,2        | 18,1        | 16,6        | 15,8        | +7,0                      |
| 4.3.      | Samarqand viloyati                    | 7,5         | 6,2         | 5,9         | 3,6         | 4,9         | 5,1         | 5,1         | 5,5         | -2,0                      |
| <b>5.</b> | <b>Janubiy iqtisodiy rayoni</b>       | <b>9,8</b>  | <b>8,0</b>  | <b>9,6</b>  | <b>15,5</b> | <b>15,5</b> | <b>5,6</b>  | <b>5,7</b>  | <b>5,6</b>  | <b>-4,2</b>               |
| 5.1.      | Surxondaryo viloyati                  | 3,4         | 2,4         | 2,4         | 2,1         | 1,9         | 1,5         | 1,5         | 1,4         | -2,0                      |
| 5.2.      | Qashqadaryo viloyati                  | 6,4         | 5,6         | 7,2         | 13,4        | 13,6        | 4,1         | 4,2         | 4,2         | -2,2                      |
| <b>6.</b> | <b>Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni</b> | <b>6,7</b>  | <b>6,6</b>  | <b>5,3</b>  | <b>3,7</b>  | <b>3,2</b>  | <b>6,6</b>  | <b>6,8</b>  | <b>6,7</b>  | <b>-0,0</b>               |
| 6.1.      | Qoraqalpog'iston Respublikasi         | 3,1         | 2,8         | 2,5         | 1,8         | 1,7         | 3,9         | 3,7         | 3,3         | +0,2                      |
| 6.2.      | Xorazm viloyati                       | 3,6         | 3,8         | 2,8         | 1,9         | 1,5         | 2,7         | 3,1         | 3,4         | -0,2                      |

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Respublikani industrilashtirish faqat yirik korxonalar bilan bog‘liq emas. Aholini ish bilan ta‘minlashdagi, hududiy ijtimoiy zo‘riqishni kamaytirishi kabi jihatlarini e‘tiborga olib O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalash uchun kuchli mexanizmlar yaratilgan [3]. Kichik biznesning sanoatda ulushi Jizzax, Namangan, Farg‘ona, Surxondaryo, Samarqand va Toshkent shahrida yuqori. Bu ko‘rsatkich Navoiy, Xorazm, Qashqadaryo va Qoraqalpog‘istonda past darajada.

O‘zbekiston sanoatining hududiy tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Namangan viloyatlarining sanoat ishlab chiqarishi juda past. Mazkur mintaqalarning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda, qulay investitsiya makonini yaratish, qo‘shma korxonalar tashkil etish hamda o‘sinh nuqta va markazlarini belgilab olish mamlakat sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Mintaqalarda sanoat mujassamlashuvining maydoniga nisbatan qaraydigan bo‘lsak Andijon, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida sanoat mujassamlashuv darajasi yuqori. Sanoat ishlab chiqarishni aholi jon boshiga nisbatan olinganda Navoiy viloyati, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Andijon viloyatlari nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega.

Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini sanoatning faqat bir sohasi rivojlanganligida ko‘rib bo‘lmaydi. Binobarin, viloyatlarda sanoatning tarmoqlar bo‘yicha tarqalishi va turlanishi ularning xilma – xilligida ham o‘z aksini topadi. Hozirda, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga alohida e‘tibor berilmoqda [4]. Bu jihatdan Toshkent hamda Farg‘ona viloyatlari birmuncha ajralib turadi. Toshkent viloyatida mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari nisbatan yaxshi rivojlangan. Bir vaqtning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Sirdaryo viloyatlari sanoati tarmoqlar turlanishi past darajada.

Respublika mintaqalarida qayta ishlashning rivojlanishi sanoat majmualari, klasterlarini shakllanishi hududlar iqtisodiy salohiyatini oshishi, ijtimoiy hududiy farqlarning kamayishi hamda mamlakatimizning hududiy mehnat taqsimotida o‘rnini yaxshilaydi. Respublikada sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o‘sinh kelmoqda.

Mamlakat sanoat tarmoqlar tarkibida mashinasozlik, oziq-ovqat va metallurgiya tarmoqlari hissasi ortib, tarkibi rivojlanib va turlanib bormoqda. Bular respublika hududlarini va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari natijasidir.

Erishilayotgan yutuqlar qatori hududlarda mavjud resurslarni ishga solinmaganligi, sanoatning hudud iqtisodiyotidagi o'rnining pastligi, tarmoq tarkibi turlanmaganligi, tor ixtisoslashuvi va yuqori hududiy va urbanistik mujassamlashuvi kabi muammolar saqlanib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, respublikada sanoatning turli tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari yetarli. Binobarin, mamlakatning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, sanoat ishlab chiqarishining strategik yo'nalishlarini tanlab olish maqsadga muvofiq. Bu esa milliy iqtisodiyotning to'la shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sustainable Development Goals. Goal 12. Ensure sustainable consumption and production patterns. Department of Economic and Social Affairs Sustainable Development.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Boltabaev M., Qosimova M., G'oyibnazarov Sh. va b. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: Noshir, 2011. – 278 b.
4. Komilova N.Kh., Hudayberganova R.T., Murtazaev I.B., Abdinazarova H.O., Madaminov Z.H. Economic and geographic problems of improvement of industrial sectors and local structure of Uzbekistan // Journal of Advanced Research in Law and Economics. Fall 2019, Volume X, Issue 6 (44), pp. 1916-1928. ISSN 2068-696X. IF 0, 229.
5. Mamatov A. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarkibi va uning o'sish omillari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2006. – 163 b.
6. Sodikov A., Komilova N., Akhmadaliyev Y., Khudayberganova R., Abdinazarova K. Regional industrial development and growth pole formation: Key factors for sustainable economic expansion // International Journal of Accounting and Economics Studies. Vol. 12 №. SI-12 (2025).
7. Soliev A.S. O'zbekiston geografiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. – 403 b.

8. To'xliev N., Haqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. – 278 b.